XALQ DEPUTATLARI QUVA TUMANI KENGASHINING
Q A R O R I

2025-yil 30-dekabr VII-17-162-11-156-K/25 Quva tumani

Quva tumanining 2026-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash toʻgʻrisida

2025 yilning 25-dekabr kuni Oʻzbekiston Respublikasining “2026-yil uchun Oʻzbekiston Respublikasining Davlat budjeti toʻgʻrisida” OʻRQ-1105-son Qonuni qabul qilindi.

2025-yil 29-dekabr kuni esa Xalq deputatlari Fargʻona viloyati Kengashining **“**Fargʻona viloyatining 2026-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash toʻgʻrisida”gi VII-15-160-11-0-K/25-son Qarori qabul qilindi. Mazkur qarorga muvofiq, shuningdek, Fargʻona viloyati Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2025-yil 29-dekabrdagi 01/07-17/10008-son, tuman iqtisodiyot va moliya boʻlimining 2025-yil 29-dekabrdagi 01/32/20-son xatlarini inobatga olib, Oʻzbekiston Respublikasining Budjet kodeksini 27, 99-moddalari, Oʻzbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati toʻgʻrisida”gi Qonunining 6-, 24-moddalariga asosan xalq deputatlari Quva tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Oʻzbekiston Respublikasining “2026-yil uchun Oʻzbekiston Respublikasining Davlat budjeti toʻgʻrisida”gi Qonuni hamda xalq deputatlari Fargʻona viloyat Kengashining 2025-yil 29-dekabrdagi VII-15-160-11-0-K/25-son qarori (keyingi oʻrinlarda qaror deb yuritiladi) rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Qarorga muvofiq, Quva tuman budjetining 2026-yilgi daromadlari **204.9 milliard soʻm** va xarajatlari esa **204.9 milliard soʻmga** teng hisobida maʼlumot uchun qabul qilinganligi, shuningdek Quva tuman budjetining shaxsiy gʻazna hisobvaragʻida turgan budjet mablagʻlarining yoʻl qoʻyiladigan eng kam miqdori **1.018 milliard soʻm** etib belgilanganligi inobatga olinsin.

3. 2026-yil uchun Quva tuman mahalliy budjeti daromadlarining prognoz koʻrsatkichlari miqdori **1-ilovaga** muvofiq;

2026-yil uchun Quva tuman mahalliy budjetidan hududiy budjet mablagʻlari taqsimlovchilarga ajratiladigan mablagʻlarning cheklangan miqdorlari **2-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

4. Tuman budjeti zaxira jamgʻarmasi hajmi 2026-yil uchun **2.655 milliard soʻm** miqdorida belgilansin.

Bunda, zaxira jamgʻarmasi mablagʻlarini amaldagi budjet qonunchiligiga muvofiq, budjet tizimi budjetlari shakllantirilayotganda oldindan nazarda tutib boʻlmaydigan xarajatlarni, shuningdek ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik yuzaga kelgan vaziyatlarda amalga oshirilishi zarur boʻlgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yoʻnaltirilishi taʼminlansin.

5. Quyidagilar:

Quva tumani hududida qishloq xoʻjaligiga moʻljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar boʻyicha mutlaq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyent miqdorlari**3-ilovaga** muvofi;

Quva tumani hududida jismoniy shaxslar boʻyicha (dehqon xoʻjaligini yuritish uchun berilgan qishloq xoʻjaligiga moʻljallangan yerlardan tashqari) mutlaq miqdorda 1 kv.m. uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyent miqdorlari **4-ilovaga** muvofiq;

noruda qurilish materiallari uchun (sement ishlab chiqarish uchun moʻljallangan ohaktoshdan tashqari) qatʼiy belgilangan soliq stavkalari miqdorlari **5-ilovaga** muvofiq;

Quva tumani boʻyicha suv resurslaridan foydalanganlik uchun belgilangan soliq stavka miqdorlari **6-ilovaga;**

Mol-mulkni ijaraga beruvchi jismoniy va yuridik shaxslar uchun belgilangan ijara toʻlovining 1 kv. metri uchun eng kam stavka miqdorlari **7-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.**

6. Tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambagʻallikni qisqartirish masalalari boʻyicha birinchi oʻrinbosari (**J.Zakirov**), tuman Iqtisodiyot va moliya boʻlimi boshligʻining oʻrinbosari (**A.Soliyev**), tuman soliq inspeksiyasi (**A.Axunov**) bilan birgalikda 2026-yil mahalliy budjeti uchun belgilangan koʻrsatkichlarni oʻz vaqtida va samarali bajarilishini taʼminlash choralarini koʻrsin.

7. Hududiy budjet mablagʻlarini taqsimlovchilar har chorak yakuni bilan budjet mablagʻlarining samarali va maqsadli sarflanganligi, xarajatlarning amaliy natijalari yuzasidan xalq deputatlari tuman Kengashiga hisobot berib borsinlar.

Bunda, hududiy budjet mablagʻlarini taqsimlovchilar:

budjetdan ajratilgan mablagʻlardan maqsadli va samarali foydalanish, xususan ish haqi va unga tenglashtirilgan toʻlovlar, oziq-ovqat, dori-darmon, kommunal xizmatlar va davlat dasturlari uchun belgilangan xarajatlarni toʻliq rejalashtirilishi va oʻz vaqtida toʻlanishi;

oʻzlarining va tasarrufidagi tashkilotlarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallari hamda daromadlar va xarajatlar smetalarining toʻgʻri tuzilishi;

budjetdan ajratilgan mablagʻlarning maqsadli sarflanishi va maqsadli indikatorlarning toʻliq bajarilishi;

tasarrufidagi tizim tashkilotlariga budjetdan ajratiladigan mablagʻlarning toʻgʻri taqsimlanishi;

oʻz tasarrufidagi tizimda budjet intizomiga amal qilinishi ustidan nazorat qilinishini;

budjet jarayonining ochiqligini taʼminlash maqsadida rasmiy veb-saytlarda maʼlumotlarni joylashtirib borilishini taʼminlasinlar.

8. Mazkur qaror tegishli tahririyatlar va ommaviy axborot vositalarida yoritilishi tavsiya etilsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

9. Mazkur qarorini bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining birinchi oʻrinbosari **J.Zakirov** hamda nazorat qilish xalq deputatlari Quva tuman Kengashining “Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari boʻyicha” doimiy komissiyasi (**A.Dadajonov**) zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi **UMAROV XALIMJON KOMILOVICH**

Xalq deputatlari Quva tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-17-162-11-156-K/25 -son
qaroriga
1-ilova

2026-yil uchun Quva tuman mahalliy budjeti daromadlarining prognoz koʻrsatkichlari miqdori

(ming.soʻm)

№	Daromadlar nomi	Quva tumani
	JAMI	**204 910 600**
1	Qoʻshilgan qiymat soligʻi	3 140 000
2	Foyda soligʻi	3 673 000
3	Aylanmadan olinadigan soliq	9 031 000
4	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad soligʻi	88 384 000
5	Jismoniy shaxslar mol mulkini ijaraga berishdan	1 290 000
	Aksiz soligʻi jami	16 971 000
	alkogol mahsulotlari (pivodan tashqari)	0
	pivo	0
6	benzin, dizel yoqilgʻisi va gazni oxirgi isteʼmolchiga realizatsiya qilishda toʻlanadigan aksiz soligʻi	16 971 000
7	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	6 135 000
8	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk soligʻi	13 249 000
9	Yuridik shaxslardan olinadigan yer soligʻi	17 283 000
10	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer soligʻi	32 310 000
11	Qurilish materiallari boʻyicha yer qaʼridan foydalanganlik uchun soliq	1 705 000
12	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	3 003 800
	shundan: Qishloq xoʻjaligi korxonalari boʻyicha suv soligʻi	4 743 000
	Qishloq xoʻjaligi korxonalari suv soligʻining 40 foizini qaytarish (PQ-5)	-1 897 200
13	Davlat ulushi boʻyicha dividendlar va davlat korxonalari foydasidan ajratmalar	0
14	Davlat boji	4 392 200
15	Yigʻimlar	1 005 600
16	Jarimalar	3 149 000
17	Davlat mulki boʻyicha ijara toʻlovlari	189 000

Xalq deputatlari Quva tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-17-162-11-156-K/25 -son
qaroriga
2-ilova

2026-yil uchun Quva tuman mahalliy budjetidan hududiy budjet mablagʻlari taqsimlovchilarga ajratiladigan mablagʻlarning cheklangan miqdorlari

ming soʻm

№	Hududiy budjet mablagʻlari taqsimlovchilar nomi	Quva tumani
Xarajatlar miqdori, jami		**204 910 600**
1	Maktabgacha va Maktab taʼlimi boʻlimi	*80 184 297*
	shundan:	*x*
	"Mening maktabim"	*4 017 000*
2	Madaniyat boʻlimi	*8 389 432*
3	Yoshlar ishlari agentligining hududiy boʻlimi	*7 121 436*
4	Sport boʻlimi	*8 892 566*
5	Kambagʻallikni qisqartirish va bandlik boʻlimi	*0*
6	Qishloq xoʻjaligi sohasi	*2 368 975*
7	Irrigatsiya boʻlimi	*3 738 807*
8	Iqtisodiyot va moliya boʻlimlarini saqlash xarajatlari	*0*
9	Ijtimoiy himoya milliy agentligining hududiy boʻlimi Ijtimoiy koʻnikma markazlari xarajatlari	*198 657*
10	Hokimiyat	*59 370 491*
	shundan:	
	Iqtisodiyot va moliya boʻlimi	*2 813 855*
	Kambagʻallikni qisqartirish va bandlik boʻlimi	*1 959 980*
	Madaniyat boʻlimi	*166 896*
	Yoshlar ishlari agentligining hududiy boʻlimi	*384 698*
	Investitsiyalar, sanoat va savdo boʻlimi	*112 243*
	Qurilish va uy-joy kommunal xoʻjaligi boʻlimi	*488 297*
	Qishloq xoʻjaligi boʻlimi	*735 895*
	Oila va xotin-qizlar boʻlimi	*351 806*
	Fuqarolar tashabbusi jamgʻarmasi	*30 182 826*
	"Mahalla budjeti" jamgʻarmasi mablagʻlari	*3 067 546*

	Zaxira jamgʻarmasi	*2 655 338*
11	Hokimiyat (Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi)	*1 111 608*
	shundan:	*x*
	Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalarini saqlash xarajatlari	*88 608*
	Axborot-kutubxona markazlari	*1 023 000*
12	Obodonlashtirish boshqarmasi	33 534 331
13	Boshqa tashkilotlar	0

Xalq deputatlari Quva tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-17-162-11-156-K/25 -son
qaroriga
3-ilova

Quva tumani hududida qishloq xoʻjaligiga moʻljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar boʻyicha mutlaq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyent miqdorlari

ming soʻmda

T/r	Tuman nomi	MFY lar nomi	Koeffitsiyent (0,5 dan 2 gacha)	Yer soligʻi stavkasi 2026-yil uchun (1 ga uchun)
1	Quva t	Rasta	1,25	62 601,0
2	Quva t	Taxtakoʻprik	1,25	62 601,0
3	Quva t	Toshkent	1,25	62 601,0
4	Quva t	Gʻalaba	1,25	62 601,0
5	Quva t	Madaniyat	0,95	47 577,0
6	Quva t	Oʻzbekiston	1,17	58 595,0
7	Quva t	M.Xasanov	1,06	53 086,0
8	Quva t	Gulobod	1,17	58 595,0
9	Quva t	Goʻzal	1,17	58 595,0
10	Quva t	Iftixor	1,06	53 086,0
11	Quva t	Quva	1,17	58 595,0
12	Quva t	Toshhovuz	1,06	53 086,0
13	Quva t	Tinchlik	1,17	58 595,0
14	Quva t	Namuna	0,96	48 078,0
15	Quva t	Qaqir	1,06	53 086,0
16	Quva t	Turk	0,96	48 078,0
17	Quva t	Yangichek	1,06	53 086,0

18	Quva t	Tolmozor	1,06	53 086,0
19	Quva t	Yangi Hayot	1,06	53 086,0
20	Quva t	Guliston	0,96	48 078,0
21	Quva t	Katta Dehqonobod	1,06	53 086,0
22	Quva t	Kattaqishloq	1,06	53 086,0
23	Quva t	Jalayer	1,06	53 086,0
24	Quva t	Qashqar	1,06	53 086,0
25	Quva t	Mustaqillik	1,06	53 086,0
26	Quva t	Oʻraboshi	1,06	53 086,0
27	Quva t	Soykeldi	1,06	53 086,0
28	Quva t	Bahor	1,06	53 086,0
29	Quva t	Sanoatchilar	0,86	43 070,0
30	Quva t	Ittifoq	0,86	43 070,0
31	Quva t	Sultonobod	0,86	43 070,0
32	Quva t	Xonobod	0,96	48 078,0
33	Quva t	Baynalmilal	1,06	53 086,0
34	Quva t	Qalinpoʻstin	1,06	53 086,0
35	Quva t	Paxtakor	1,06	53 086,0
36	Quva t	Chilon	1,06	53 086,0
37	Quva t	Qayirma	1,06	53 086,0
38	Quva t	Nayman	1,06	53 086,0
39	Quva t	Sufi	1,06	53 086,0
40	Quva t	Akbarobod	0,96	48 078,0
41	Quva t	Damariq	0,96	48 078,0
42	Quva t	Kandabuloq	0,96	48 078,0
43	Quva t	Oltinariq	0,96	48 078,0
44	Quva t	Yuziya	0,96	48 078,0
45	Quva t	Soyguzar	0,86	43 070,0

46	Quva t	Oqqoʻrgʻon	0,86	43 070,0
47	Quva t	Yangi qishloq	0,86	43 070,0
48	Quva t	Tojikqishloq	0,86	43 070,0
49	Quva t	Yuqori Qoʻrgʻoncha	0,86	43 070,0
50	Quva t	Turkrovot	0,96	48 078,0
51	Quva t	Pastki Xoʻja-asan	0,96	48 078,0
52	Quva t	Qorashox	1,06	53 086,0
53	Quva t	Novkent	1,06	53 086,0
54	Quva t	Katta Qashqar	1,06	53 086,0
55	Quva t	Yangiobod	0,96	48 078,0
56	Quva t	Boʻston	0,96	48 078,0
57	Quva t	Dehqonobod	0,96	48 078,0
58	Quva t	Qoraqum	1,06	53 086,0
59	Quva t	Bolalik	0,96	48 078,0
60	Quva t	Boyiston	1,06	53 086,0
61	Quva t	Pandigon	1,06	53 086,0
62	Quva t	Oʻzbek	1,06	53 086,0
63	Quva t	Pastki Xonobod	0,96	48 078,0

Xalq deputatlari Quva tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-17-162-11-156-K/25 -son
qaroriga
4-ilova

Quva tumani hududida jismoniy shaxslar boʻyicha (dehqon xoʻjaligini yuritish uchun berilgan qishloq xoʻjaligiga moʻljallangan yerlardan tashqari) mutlaq miqdorda 1 kv.m. uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyent miqdorlari

soʻmda

T/r	Shahar va tuman nomi	MFY lar nomi	Koeffitsiyent (0,5 dan 2 gacha)	Yer solig'i stavkasi 2026-yil uchun (1 kv uchun)
1	Quva t	Rasta	1,20	564,0
2	Quva t	Taxtakoʻprik	1,20	564,0
3	Quva t	Toshkent	1,20	564,0
4	Quva t	Gʻalaba	1,20	564,0
5	Quva t	Madaniyat	0,84	395,0
6	Quva t	Oʻzbekiston	1,14	536,0
7	Quva t	M.Xasanov	1,04	489,0
8	Quva t	Gulobod	1,14	536,0
9	Quva t	Goʻzal	1,14	536,0
10	Quva t	Iftixor	1,14	536,0
11	Quva t	Quva	1,20	564,0
12	Quva t	Toshhovuz	1,04	489,0
13	Quva t	Tinchlik	1,20	564,0
14	Quva t	Namuna	0,94	442,0
15	Quva t	Qaqir	1,04	489,0
16	Quva t	Turk	0,94	442,0
17	Quva t	Yangichek	1,14	536,0
18	Quva t	Tolmozor	1,14	536,0
19	Quva t	Yangi Hayot	1,14	536,0

20	Quva t	Guliston	0,94	442,0
21	Quva t	Katta Dehqonobod	1,04	489,0
22	Quva t	Kattaqishloq	1,04	489,0
23	Quva t	Jalayer	1,04	489,0
24	Quva t	Qashqar	1,04	489,0
25	Quva t	Mustaqillik	1,14	536,0
26	Quva t	Oʻraboshi	0,94	442,0
27	Quva t	Soykeldi	1,14	536,0
28	Quva t	Bahor	1,14	536,0
29	Quva t	Sanoatchilar	0,84	395,0
30	Quva t	Ittifoq	0,84	395,0
31	Quva t	Sultonobod	0,84	395,0
32	Quva t	Xonobod	0,94	442,0
33	Quva t	Baynalmilal	1,04	489,0
34	Quva t	Qalinpoʻstin	1,04	489,0
35	Quva t	Paxtakor	1,04	489,0
36	Quva t	Chilon	1,04	489,0
37	Quva t	Qayirma	1,04	489,0
38	Quva t	Nayman	1,04	489,0
39	Quva t	Sufi	1,04	489,0
40	Quva t	Akbarobod	0,94	442,0
41	Quva t	Damariq	0,94	442,0
42	Quva t	Kandabuloq	0,94	442,0
43	Quva t	Oltinariq	0,94	442,0
44	Quva t	Yuziya	0,94	442,0
45	Quva t	Soyguzar	0,84	395,0
46	Quva t	Oqqoʻrgʻon	0,84	395,0
47	Quva t	Yangi qishloq	0,84	395,0
48	Quva t	Tojikqishloq	0,84	395,0
49	Quva t	Yuqori Qoʻrgʻoncha	0,84	395,0

50	Quva t	Turkrovot	0,94	442,0
51	Quva t	Pastki Xoʻja-asan	0,94	442,0
52	Quva t	Qorashox	1,04	489,0
53	Quva t	Novkent	1,04	489,0
54	Quva t	Katta Qashqar	1,04	489,0
55	Quva t	Yangiobod	0,94	442,0
56	Quva t	Boʻston	0,94	442,0
57	Quva t	Dehqonobod	0,94	442,0
58	Quva t	Qoraqum	1,04	489,0
59	Quva t	Bolalik	0,94	442,0
60	Quva t	Boyiston	1,04	489,0
61	Quva t	Pandigon	1,04	489,0
62	Quva t	Oʻzbek	1,04	489,0
63	Quva t	Pastki Xonobod	0,94	442,0

Xalq deputatlari Quva tumani Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-17-162-11-156-K/25 -son qaroriga
5-ilova

Noruda qurilish materiallari uchun (sement ishlab chiqarish uchun moʻljallangan ohaktoshdan tashqari) qatʼiy belgilangan soliq stavkalari miqdorlari

(soʻmda)

T/r	Hududlar	2026-yil uchun			
		qurilish qumi, qumtoshlar, qum-shagʻal aralashmasi		Gʻisht-cherepitsa xom ashyosi, Lyosslar va lyossimon jinslar	
		Koeffitsiyent	Mutlaq qiymat	Koeffitsiyent	Mutlaq qiymat
1	Quva tumani	1,05	5 618,0	1,05	5 190,0

Xalq deputatlari Quva tumani Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-17-162-11-156-K/25 -son qaroriga
6-ilova

Quva tumani bo‘yicha suv resurslaridan foydalanganlik uchun belgilangan soliq stavka miqdorlari

(so‘mda)

T/r	Hududlar	2026-yil uchun							
		Iqtisodiyotni barcha tarmoqlari hamda sanoat korxonalari uchun				Alkogolsiz ichimliklarni hamda pivo va vinodan tashqari alkogol mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun		Avtotransport vositalarini yuvish uchun	
		Yer usti		Yer osti					
		Koeffitsiyent	Stavka	Koeffitsiyent	Stavka	Koeffitsiyent	Stavka	Koeffitsiyent	Stavka
1	Quva tumani	1,12	839,0	1,12	1 019,0	1,07	43 506,0	1,12	17 976,0

Xalq deputatlari Quva tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-17-162-11-156-K/25 -son
qaroriga
7-ilova

Mol-mulkni ijaraga beruvchi jismoniy va yuridik shaxslar uchun belgilangan ijara to‘lovining 1 kv. metri uchun eng kam stavka miqdorlari

(so‘mda)

№	Hudud nomi	2026-yil uchun			
		1 m.kv turar joylar uchun		1 m.kv noturar joylar uchun	
		Koeffitsiyent	Yakuniy stavkasi	Koeffitsiyent	Yakuniy stavkasi
1	Quva tumani	1,05	6 195,00	1,05	12 390,0